

## **KLASTER TIZIMIDA PAXTANI QURITISHNING TEENOLOGIK JARAYONLARINI O‘RGANISH VA TAHLIL QILISH**

**X.X.Imomnazarov**

Farg‘ona politexnika instituti assistenti

**Umarov Sodirbek Solijon o‘g‘li,**

**Turanov Faxriddin Akramjon o‘g‘li**

Farg‘ona politexnika instituti talabalar

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Farg‘ona viloyatida joylashgan “Fergana-Oceana” MCHJ paxta tozalash korxonasida chigitli paxtani quritish texnologik jarayonidagi minorali quritish uskunasining ishlash uslubi va texnologik jarayonlarni tahlil kilish uchun chigitli paxta xom ashyosini An 37 va Namangan 77 seleksion navlarida tajribalar o‘tkazildi. Olingan natijalardan uskunaning paxta tarkibidagi namlikni ajratish miqdori, paxtaning bo‘lish vaqt, uskunaning 1 kg namlikni bug‘latish uchun sarf bo‘lish miqdori va tahlili natijalari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** quritish, namlik, polkalar, ifloslik, seleksiya, ishchi kamera.

### **Kirish**

Hozirgi vaqtda paxta xom ashyosini quritish uchun foydalanib kelinayotgan barabanli quritshlarni bir qator kamchiliklari ayniqsa yoqilg‘i va elektor energiyani ko‘p sarf qilinishi hamda paxta xom ashyosining tabiiy sifat ko‘rsatkichlarining buzilishiga yani paxtaning eshilishiga sabab bo‘layotganligi o‘tkazilgan tajribalar yordamida aniqlandi [1-3]. Shuning uchun paxta tozalash sanoati rekanstruksiya va modernizatsiya qilish dasturiga muvofiq Farg‘ona viloyatida joylashgan “Fergana-Oceana” MCHJ paxta tozalash korxonasiga tadbiq etilgan xorijiy paxta tozalashning texnik va texnologiyasini o‘rganish va taxlil qilish korxonada bir qator tajribalar o‘tkazildi:

### **Asosiy qism**

O‘tkaziladigan tajribalar oldindan rejalshtirilgan reja asosida o‘tkazildi. Buning uchun biz bevosita ishlab chiqarish texnologik jarayonga o‘rnatilgan mashinalardan olingan namunalarni laboratoriya sharoitida o‘tkazilib tahlil qilindi. Tajriba Andijon-37 va Namangan-77 seleksion navlarida o‘tkazildi. Tajribada

bevosita MGZ -10 minorali quritish uskunasining ishchi kamerasidagi o‘rnatilgan polkalarida paxta xom ashysining harakati maxsus kuzatish oynalari orqali nazorat qilib turilib uning harakati foto kuzatuvalar orqali amalga oshirildi [3-5] (1-rasm). Paxta xom ashysining harakatlanish jarayonida uskunaning yuqorgi qismiga o‘rnatilgan qoziqchali tozalagichlarda paxtaning tarkibidagi mayda iflosliklarni tozalash jarayoni kuzatildi. Uskunaga kirayotgan va undan chiqayotgan paxta xom ashysini namlik va iflosligi bo‘yicha namunalar olinib laboratoriya sharoitida aniqlandi.



**1-rasm: Minorali quritgichning umumiy ko‘rinishi**

Bu yerda: 1- nam paxta tushish quviri; 2- kuzatish oynalari; 3;4- paxta xarakatlanuvchi polkalar; 5 – kuzatish eshiklari.

Olingan natijalar maxsus jadvalarga to‘ldirib borildi (1-jadval). Minorali quritish uskunasiga o‘rnatilgan polkalarda paxta xom ashysining harakati havo oqimi yordamida amalga oshirilishi natijasida ishchi kamerasidagi havoning tezligi katta yoki kichikligiga qarab paxtaning ishchi kamerada bo‘lish vaqtini 11-13 sekundni tashkil etilishi aniqlandi.

**1-jadval**

Mino rali quritkichni ng ishchi kamerasida havoning tezligi, m/sek :	Mino rali quritishda paxtaning bo‘lish vaqtiga sek:	Paxta ning boshlang‘ich namligi, %: W <sub>p.b</sub>	Paxta ning minorali quritgichdan keyingi namligi, %: W <sub>p</sub>	Paxta ning boshlang‘ich iflosligi, %: Z <sub>p.b.i</sub>	Paxta ning boshlang‘ich iflosligi, %: Z <sub>p.q.i</sub>
24	8	11,00	10,26	6,46	5,3
22	7	10,86	10,46	6,76	5,76
25	9	11,20	10,36	6,59	5,47
26	8	11,5	10,40	6,76	5,55
21	7	10,9	10,51	6,67	5,58

Ushbu olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki minorali quritgichning namlik ajratishi o‘rtacha 0,8 % ni tashkil etmoqda, minorali uskunasiga ketma – ket o‘rnatilgan 2 ta qoziqchali barabanlar paxtani to‘rli yuzaga sidirib o‘tishi natijasida paxta xom ashysiga tarkibidagi passiv mayda iflosliklarni tozalash bo‘yicha samaradorligi 14,7 % ni tashkil etishini ko‘rsatdi [5-9].

Minorali quritish uskunasida havoning paxtasiz harakatlanishi o‘rtacha 26 m/sek bo‘lganda ishchi kamerada paxtaning bo‘lish vaqtiga o‘rtacha 8 sekundni tashkil etmoqda. Bu esa paxtaning tarkibidagi namlikni to‘liq ajratmasdan faqatgina tola tarkibidagi erkin namliklarni ajratib olish imkoniyatini beradi.

**Research Science and  
Innovation House**



1-rasm: laboratoriya xonasida paxta xom ashysining tarkibidagi mayda iflosligini aniqlash uchun namuna olish jarayoni.

Bu yerda: 1- olingan namunani saqlash bonkasi; 2- minorali quritish uskunasidan oldingi va keyingi olingan namuna.



2-rasm: laboratoriya xonasida paxta xom ashysining tarkibidagi mayda ifloslikni aniqlash uchun olingan namuna.

Bu yerda: 1- LKM laboratoriya uskunasi; 2- paxta tarkibidagi mayda ifloslikni aniqlash uchun olingan namuna.

Past navli paxta xom ashysini quritish uchun texnologik jarayonlarga kamida 3 yoki 4 ta minorali quritish uskunalarni ketma – ket o‘rnatishni talab etilmoqda. Bu esa 1 kg namlikni bug‘latish uchun sarf qilinadigan yoqilg‘ining miqdorini oshishib ketishiga olib keladi. Minorali quritish uskunasida issiqlikni umumiy sarfini aniqlash natijasida uskunaning F.I.K 17,84% ni tashkil etishi aniqlandi. Olingan

natijadan ko‘rinib turibdiki uskunaning F.I.K juda past ekanligi aniqlandi. Ishchi kameradagi havoning tezligini kosali anyomametrlar va maxsus sekundamer yordamida aniqlandi [7-10].

Paxta xom ashvosini ishchi kamerada bo‘lish vaqtini aniqlash uchun ishchi kamerada paxtaning to‘liq chiqib ketganidan so‘ng 10 kg dan 50 kg gacha bo‘lgan paxtani ishchi kameraga berish bilan chiqish vaqtidagi paxtaning miqdorini o‘lchash yo‘li bilan aniqlandi.

### **Xulosa**

Ushbu maqolada olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlaridan olingan nazariy ma’lumotlardan foydalanib shunday xulosaga kelishimiz mumkunki xozirgi kunda mahalliy chigitli paxtani qayta ishlash korxonalarida foydalanib kelinayotgan 2SB-10 barabanli quritshlarni bir qator kamchiliklari ayniqsa yoqilg‘i va elektor energiyani ko‘p sarf qilinishi hamda paxta xom ashvosining tabiiy sifat ko‘rsatkichlarining buzilishiga yani paxtaning eshilishiga sabab bo‘layotganligi o‘tkazilgan tajribalar yordamida aniqlandi hamda zamonaviy xorijiy firmalarda ishlab chiqarilgan MGZ-10 Minorali chigitli paxtani quritish uskunasini mahalliy ishlab chiqarish korxonalariga tadbiq qilgan xolda ishlab chiqarish unumdorligini oshirish va mexanik shikastlanish darajasi kam bo‘lgan sifatli tola ajratib olinishiga erishishimiz mumkun degan xulosa kelindi.

### **Foydalangan adabiyotlar**

1. N.A.Navruzov., I.D.Madumarov., N.M.Axmatov., M.A.Axmatov., Yuqori navli paxta xom ashvosini quritish uskunasi. To‘qimachilik muammolari №2/2009. 104-106 b.
2. X.E.Turdiyev., M.A.Axmatov., Minorali quritsh uskunalarida paxtani xar xil namligi bo‘yicha ish samaradorligin o‘rganish., Magistratura talabalarning ilmiy maqolalar to‘plami 2012
3. Shohida, K., & Khurshidbek, I. (2022). Investigation of ways to increase the speed of the raw material roller on the ginning equipment. Universum: technical science , (2-7 (95)), 40-42.
4. Sodiqovna, A. M., Abdurashidovna, E. R., & Uktamovna, A. D. Study of female abnormal body types and their analysis. JournalNX, 7(06), 333-335.
5. Sadiqovna, A. M. (2022). Determining the Type of Clothing Suitable

for Women With An Non Typical Figure. Texas Journal of Engineering and Technology, 10, 22-26.

6. Abduraximova, M. (2022). Notipaviy qomatli ayollarga mos tushuvchi kiyim turini aniqlash. Естественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 1(18), 41-45.

7. Ergashov, Y., Babayeva, M., & Akhmedov, A. (2023). New regenerator design for regeneration of raw cotton voles from non-ginned seeds. Academia Science Repository, 4(04), 32-35.

8. O‘g‘li, T. U. D. U., & Qizi, B. M. N. (2022). Verification of the values obtained based on the theoretical analysis of the working details of the crusher in the program “Solidworks”. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(10), 222-229.

9. Baxtiyorovna, N. B. (2022). Development of Structures of Double Patterned Weaves With Elements of Press Loops With A Geometric Pattern. Eurasian Research Bulletin, 14, 175-181.

10. Maxmudjon, T., & Dildora, Y. (2021). Hygienic Effect Of The Drapery Of Children’s Clothes. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 3(11), 48-52.

# Research Science and Innovation House